

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

# Omonatlar

AT "Aloqabank"dagi omonatlar — bu pul mablag'laringizni xavfsiz saqlash va yaxshi daromad olish manbaidir. Sizing barcha omonatlaringiz «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi» tomonidan kafolatlangan. Sizing omonatlaringiz:

- soliqlar va majburiy to'lovlardan ozod qilinadi;
- mablag'lar manbalari deklaratsiya qilinmaydi;
- ma'lumotlar sir saqlanishi to'liq kafolatlanadi.

## AT "Aloqabank"dagi mavjud omonatlar ro'yxati:

№	Omonat nomi	Valyuta turi	Omonat turi	Muddati amalda	Foizi	Omonat tartiblariga qisqacha izoh
1	TQO	Milliy	Talab qilib olinguncha	muddatsiz	0	Omonatga mablag'lar naqd milliy valyutada qabul qilinadi hamda qabul qilingan pul mablag'lari omonatchining birinchi talabi bilan oq beriladi.
2	TQO (Mobil)	Milliy	Talab qilib olinguncha	muddatsiz	0	Mobil ilova orqali AT "Aloqabank"ning plastik karta hisobvaraqlaridan naqd pulsiz ko'chirish yo'li bilan milliy valyutada ochiladi.
3	TQO	AQSh dollarida	Talab qilib olinguncha	muddatsiz	0	Omonatga mablag'lar naqd xorijiy valyuta
4	Kelajak uchun	Milliy	muddatli	3-18 yil	14%	Omonat 15 yoshgacha bo'lgan bolalar nomiga ochiladi va bola 18 yoshga to'lgunga qadar saqlanadi. Omonatga qo'shimcha 1,0 mln so'mdan kam bo'lmagan miqdorda badallar qo'yib borish mumkin. Omonat naqd va naqdsiz qabul qilinib, xuddi shu ko'rinishda qaytib beriladi.
5	Tadbirkor	Milliy	muddatli	2-7 yil	10%	Omonatga mablag'lar naqd va naqdsiz pulda qabul qilinib, xuddi shu ko'rinishda qaytib beriladi. Foizlarni har oyda olish mumkin, olinmagan foizlar kapitallashtirilmaydi. Omonatga qo'shimcha 1,0 mln so'mdan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha badallar qo'yib borish mumkin. Omonatchi ushbu mablag'ni garovga qo'ygan holda bankdan omonat muddatiga kredit mablag'lari rasmiylashtirishi mumkin.
6	Qulay Imkoniyat	Milliy	muddatli	1,2 va 3 oy	10%	Omonatga mablag'lar naqd va naqdsiz pulda qabul qilinib, xuddi shu ko'rinishda qaytib beriladi. Omonatga hisoblangan foizlar faqat AT "Aloqabank"ning plastik kartochkasiga o'tkazib beriladi. Foizlarni har oyda olish mumkin. Omonatga 1,0 mln so'mdan kam bo'lmagan miqdorda 12 oy muddatga qabul qilinganda 9 oy davomida qo'shimcha badallar qo'yib borish mumkin. Omonatchi ushbu mablag'ni garovga qo'ygan holda bankdan omonat muddatiga kredit mablag'lari rasmiylashtirishi mumkin.
				6,9 va 12 oy	14%	
7	Kafolat (Mobil)	Milliy	muddatli	1,2,3 oy	10%	Mobil ilova orqali AT "Aloqabank"ning plastik karta hisobvaraqlaridan naqd pulsiz ko'chirish yo'li bilan milliy valyutada ochiladi.
				4,5,6 oy	12%	
				7,8,9 oy	13%	
				10,11 va 12 oy	14%	
8	Kelajakka sarmoya	Milliy	muddatli	2 va 3 yil	16%	Omonatga mablag'lar naqd pul va naqd pulsiz shaklda hamda muddati tugagan jamg'arma va muddatli omonatlardan esa naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan ham qabul qilinadi va shu tartibda muddatidan so'ng qaytarib beriladi (muddati tugagan jamg'arma va muddatli omonatlardan o'tkazilgan omonatlar bundan mustasno). Omonatga xisoblangan foizlar faqat AT "Aloqabank"ning plastik kartochkasiga o'tkazib beriladi. Foizlarni har oyda olish mumkin, olinmagan foizlar kapitallashtirilmaydi. Omonatga qo'shimcha 1,0 mln so'mdan kam bo'lmagan miqdorda badallar qo'yib borish mumkin. Omonatchi ushbu mablag'ni garovga qo'ygan holda bankdan omonat muddatiga kredit mablag'lari rasmiylashtirishi mumkin.